

PROFESSIONAL LAYOQATI YUQORI BO'LGAN SUD EKSPERTLARINI TAYYORLASHDA DUAL TA'LIM IMKONIYATLARI.

Axmedov Baxodir Baxtiyarovich

*O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymanova nomidagi
Respublika sud ekspertizasi markazi Odam DNKsi sud biologik ekspertizasi
laboratoriyasi bosh eksperti.*

Baxtiyorova Sitara Baxtiyorovna

*O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymanova nomidagi
Respublika sud ekspertizasi markazi Odam DNKsi sud biologik ekspertizasi
laboratoriyasi yetakchi eksperti.*

Annotatsiya: *Maqolada malakasi yuqori bo'lgan sud ekspertlarini tayyorlashning muammolari va ularni hal qilish uchun dual ta'lim imkoniyatlari hamda X.Sulaymanova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazida dual ta'lim tizimi bo'yicha tashkil etilgan o'quv kurslari bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *sud eksperti, dual ta'lim, o'quv kurslari.*

Huquqiy davlatning asosiy belgilaridan biri bu qonun ustuvorligi va insonlar xaq-huquqlari va erkinliklarining hamda havfsizligining yuqori darajada ta'minlanganligidir. Yildan yilga jinoyatlarning yangi turlari va ularni amalga oshirish uchun qo'llaniladigan yangi uslublar paydo bo'lishi huquqni muxofaza qiluvchi organlar va ularga ko'maklashuvchi sud ekspertlarining malakasi doimiy ravishda oshirib borish bilan birgalikda, sud ekspertlarini tayorlashda zamonaviy yondashuvlarni talab qilmoqda.

Mavzuga kirishdan avval sud eksperti haqidagi ta'rif va unga qo'yiladigan malakaga oid talablar bilan sud eksperti haqidagi qonun asosida tanishsak.

Sud eksperti — xulosa berish uchun fan, texnika, san'at yoki hunar sohasida maxsus bilimlarga ega bo'lgan, belgilangan tartibda sud eksperti sifatida tayinlangan jismoniy shaxs [1]. Mazkur qonunning 11-moddasida Sud eksperti malakasiga oid quyidagi talablar qo'yilgan:

-Davlat sud eksperti lavozimini oliy ma'lumotga, alohida xollarda esa o'rta maxsus, kasb-hunar ma'lumotiga ega bo'lgan, muayyan sud-ekspert ixtisosligi bo'yicha keyingi tayyorgarlikdan o'tgan va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda davlat sud eksperti sifatida attestatsiyadan o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi egallashi mumkin [1]. Yangi O'zbekistonda malakasi yuqori bo'lgan kadrlarga talab barcha sohalarda bo'lgani kabi sud ekspertiza sohasida ham nihoyatda yuqori. Buning bir nechta sabablari bor. Bulardan asosiysi bu tajribasi va ilmiy salohiyati katta bo'lgan kadrlarni oylik maoshi yuqori bo'lgan xususiy sektorga o'tib ketishi yoki yoshga doir pensiyaga chiqishi sababli, ularning o'rnini to'ldirishi mumkin bo'lgan yoshlarning yetishmasligi. Qayd etish joizki, nodavlat

ekspertiza tashkilotlarini tashkil etishga ruxsat etilganidan so'ng [2], mazkur muammo yanada chuqurlashishi ehtimoli yuqori. Chunki, xususiy sektorda maosh taklif qilish imkoniyati hamda mehnat sharoitlari odatda byudjet tashkilotlariga nisbatan yuqori bo'ladi. Shuningdek, yillar davomida majburiy umumiy o'rta ta'lim hamda oliy ta'limda to'planib qolgan muammolar sababli, yetarli bilim va salohitga ega bo'lgan kadrlarga ehtiyojni nafaqat sud ekspertiza tashkilotlarida, balki barcha davlat strukturasi idoralarida o'sib borishining asosiy sabablaridan biri bo'ldi.

Fikrimizning dalili sifatida birgina 2021-yilda oliy o'quv yurtlariga xujjat topshirgan abituriyentlarning deyarli uchdan biri, ya'ni 35.8% o'tish balining eng quyi chegarasi bo'lgan 56.7 ballni to'play olmagan [7]. Aytish joizki, 56.7 ball-bu to'plash mumkin bo'lgan eng yuqori 189 ballning 30% degani. O'zbekistondagi barcha yo'nalishlarning 70%da kirish bali 100 balldan past bo'lgan [7]. Raqamlardan ko'rinib turibdiki, abituriyentlarning umumiy bilim darajasi ancha past. Afsuski, umumiy ta'limdagi muammolar oliy ta'limni ham chetlab o'tmagan. X.Sulaymanova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markaziga bo'sh vakant o'rinlarga xujjat topshirgan talabgorlarning yarmidan ko'pi birinchi bosqichda beriladigan test savollarida o'tish balini to'play olmasliklari, o'rta ta'limdagi muammolarni oliy ta'limda ham mavjudligini tasdiqlaydi. Kadrlar muammosiga o'z vaqtida mamlakat Prezidenti darajasida ham e'tibor qaratildi va O'zbekiston Respublikasida sud-ekspertlik sohasini har tomonlama takomillashtirish, bu sohadagi muammolar bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish hamda mamlakatda sud ekspertizasi nazariyasi va amaliyotini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini shakllantirish, nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash, sud-ekspertlik sohasini o'rta muddatda tizimli isloh qilishning aniq chora-tadbirlarini belgilash maqsadida qabul qilingan farmonida bunga quyidagicha sabablar keltirib o'tildi:

sud ekspertlarining kasbiy bilim va ko'nikmalarini oshirib borishi uchun yetarlicha imkoniyatlar yaratilmaganligi hamda ularni xorijiy davlatlarga malaka oshirish va stajirovka o'tash uchun grant mablag'lari ajratilmasligi ushbu sohani yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlashga to'sqinlik qilmoqda;

sud-ekspertiza muassasalari xodimlarini moddiy-ijtimoiy rag'batlantirish mexanizmlarining takomillashtirilmaganligi olib borilayotgan tadqiqotlar samaradorligini oshirish va korrupsion holatlarning oldini olish, vijdonli va yuqori malakali kadrlarni jalb qilish imkonini bermaydi;

Shu sababli, mazkur muammoni yechish va yuqori malakali kadrlarni tayyorlash uchun O'zbekiston ta'lim tizimida yangi yo'nalish bo'lgan dual o'qitish tizimi amaliyotga tadbiq etilmoqda. Bu qanday tizim va uning afzal jihatlari haqida qichqacha to'xtalib o'tsak.

Dual o'qitish tizimi - bu kasbiy ta'limning tarixan yig'ilib kelingan shakli bo'lib, Evropaning siësiy, iqtisodiy, diniy va texnologik tarixiga kirib kelgan. Bugungi kunda ushbu o'quv tizimi Germaniya, Avstriya, Daniya, Gollandiya, Shveysariyada muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda. "dual", "duallik" atamasi (lot. "dualis" so'zidan olingan)

"ikkilangan, ikkilangan birlik" degan ma'noni anglatadi. Dual o'qitish ta'limning turli sohalarida keng qo'llanilish imkoniyati mavjud. Pedagogikada "dual", "dual tizim" tushunchalari birinchi marta Germaniyada 1960-yillarning o'rtalarida ta'limning yangi shakli sifatida qo'llanila boshlangan. Keyinchalik ta'limning ushbu turi dunè bo'yicha tan olindi va dunè miqèsida shuhrat qozondi. Dual ta'lim nafaqat ma'lum bir professional vazifalarni bajarishga o'rgatadi, balki mehnat jamoasida muvaffaqiyatli moslashishga imkon beradi, kerakli vakolat va mas'uliyatni shakllantiradi. Dual ta'lim tizimining afzalliklarini ta'kidlab o'tsak:

1. Mutaxassislarni amaliy tayèrlash nafaqat korxonalarda, balki ta'lim tashkilotlarining ustaxonalari, laboratoriyalari va o'quv maydonchalarida ham amalga oshiriladi;

2. Ta'lim dasturlarining mazmuni va tarkibi ta'lim muassasasi va korxona o'rtasida kelishilgan bo'lib, barcha tomonlarning talablarini qondirishga imkon beradi.

3. Ta'lim muassasasi va korxona o'rtasida yaqin munosabatlar, o'zaro hamkorlik rivojlanishi mumkin.

4. Ishga joylashganda, mehnat jaraèniga tez moslashish ehtimoli katta.

5. Korxonada amaliy ishlarni bajarish uchun o'quv muassasasidagi nazariy faoliyatning doimiy o'zgarishini o'rganish uchun eng yaxshi turtki bo'lib xizmat qiladi;

6. Kasbni aniqroq tushunishni ta'minlaydi [6].

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda 2022-yildan boshlab Markazda dual ta'lim tizim bo'yicha Respublikaning sud ekspertlariga bo'lgan talabini qondirish maqsadida talabalar shartnoma asosida o'qishga qabul qilina boshlandi. Endi dual ta'lim tizimining Markazda qanday tadbqiq etilganligi va o'qish shart-sharoitlari haqida to'xtalib o'tsak. Sud-ekspertiza sohasida dual ta'lim bo'yicha kadrlarni qayta tayyorlash o'quv kurslari, yiliga ikki marta oktyabr va fevral oylarida tashkil etiladi.

O'quv kurslariga talabgorlardan hujjat qabul qilish o'quv kursi boshlanishidan uch oy oldin boshlanadi va o'quv kursi boshlanishiga bir oy qolganda to'xtatiladi. Talabgorlar tegishli davlat sud-ekspertiza muassasasining rasmiy veb-saytida ro'yxatdan o'tgan holda yoki bevosita quyidagi hujjatlarni topshiradi:

-davlat sud-ekspertiza muassasasiga muassasa rahbari nomiga ariza;

-talabalar uchun tahsil olayotganligi haqida ma'lumotnoma;

Davlat sud-ekspertiza muassasasi aniqlangan o'quv kurslari bo'yicha ehtiyojlardan kelib chiqib, o'quv kurslari boshlanishidan o'n besh kun oldin tegishli sud ekspertiza yo'nalishlari bo'yicha o'quv kurslarini tashkil etish xususida oliy ta'lim muassasalari bilan shartnomalar tuzadi. Talabgorlarni o'quv kursiga qabul qilish suhbat shaklida o'quv kursi boshlanishidan o'n kun oldin o'tkaziladi. Suhbat talabgorning tanlayotgan kasbga qiziqishi, soha bo'yicha tayanch bilimlarini sinovdan o'tkazish maqsadida komissiya tomonidan o'tkaziladi. Suhbat natijasi bo'yicha o'qishga tavsiya etilgan talabgorga ikki nusxada o'quv kursida o'qish to'g'risidagi shartnomani imzolash taklif etiladi. Shartnomani imzolagan va to'lovni amalga oshirgan talabgor o'quv kurslariga davlat sud-ekspertiza muassasasi va oliy ta'lim muassasasi

rahbarlarining qo'shma buyrug'i bilan qabul qilinadi. Shartnoma tuzgan talabgorlar sonidan kelib chiqib o'n nafardan yigirma besh nafargacha tinglovchilardan iborat guruhlar shakllantiriladi. O'quv kursi boshlangunga qadar davlat sud-ekspertiza muassasasi hamda oliy ta'lim muassasasi o'rtasida ta'limni tashkil etish va muvofiqlashtirish bo'yicha dual ta'lim dasturi tasdiqlanadi. Ushbu dastur sud ekspertiza qonunchiligi va sohaga oid o'zgarishlarni inobatga olgan holda yangilanib boriladi. Ishlab chiqilgan dasturlar asosida o'quv rejasi va o'quv amaliyot dasturlari ishlab chiqiladi. Bunda, ta'lim jarayonining 40 (qirq) foizi nazariy, 60 (oltmish) foizi amaliy qismga ajratiladi. Ma'ruza, seminar mashg'ulotining o'quv soatlari miqdori o'quv kursining davomiyligidan kelib chiqib belgilanadi. Tinglovchilarga ta'lim jarayonining nazariy qismi tegishli oliy ta'lim muassasasida, amaliy qismi tegishli davlat sud-ekspertiza muassasasida tashkil etiladi. Davlat sud-ekspertiza muassasasi rahbarining buyrug'i asosida dual ta'lim bo'yicha tinglovchilarga amaliy tajribaga ega amaliyot rahbari birlashtiriladi. Amaliyot rahbarining faoliyati davlat sud-ekspertiza muassasasi tomonidan nazorat qilinadi va birlashtirilgan tinglovchilarni to'liq va sifatli tayyorlashga mas'ul hisoblanadi. Tinglovchilar tomonidan o'quv dasturlarini o'zlashtirish darajasini aniqlash maqsadida quyidagi oraliq, joriy va yakuniy nazorat turlarini o'tkazish nazarda tutiladi.

O'quv rejasi va dasturida nazarda tutilgan barcha modullarni muvaffaqiyatli o'zlashtirgan tinglovchiga yakuniy imtihonda ishtirok etishga ruxsat beriladi. Yakuniy imtihon o'qish davrida olingan nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarni aniqlashga qaratilgan yozma va amaliy imtihon shaklida o'tkaziladi. Yakuniy imtihon ikki bosqichda — malaka ishi hamda og'zaki imtihon shaklida o'tkaziladi. Yakuniy imtihon natijalari ballar qo'yish yo'li bilan 100 ballik tizimda baholanadi. Yakuniy imtihon natijalari bo'yicha tinglovchi jami 55 va undan yuqori ball to'plaganida yakuniy imtihondan o'tgan deb hisoblanadi. Yakuniy imtihon savollari nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni sinovdan o'tkazish uchun o'quv va amaliy mashg'ulotlar jarayonida o'zlashtirilgan mavzular, materiallar asosida tuziladi. Dual ta'lim kursi bo'yicha yakuniy imtihondan muvaffaqiyatli o'tgan tinglovchiga sud eksperti sifatida kasbiy layoqatini tasdiqlovchi sertifikat beriladi [5].

Xulosa

Dual ta'limni tashkil etishning maqsad – O'zbekiston sud ekspertizasi sohasini rivojlantirish, uni malakali kadrlar bilan ta'minlash hamda talabalarni o'qish davomida asosiy bilim olish maskanidan tashqari mehnat faoliyati bilan ta'limni uyg'unlashgan holda tashkil etish orqali qo'shimcha kasb egallashga imkoniyat yaratish hisoblanadi.

Tinglovchilarda kurs davomida mustaqil ravishda sud ekspertizasini o'tkazish va sud ekspertiza xulosasini rasmiylashtirish uchun zarur bo'lgan malaka, tegishli sud ekspertiza turlari bo'yicha zamonaviy fan va texnologiyalariga muvofiq ilmiy asoslangan metodikalarni amalda qo'llash bo'yicha ko'nikmalar yetarlicha shakllantiriladi hamda sud ekspertizasining shakllanish bosqichlari, zamonaviy sud ekspertizasining so'nggi yutuqlari va imkoniyatlari haqidagi axborotlar bilan

ta'minlanadi. Bu esa kelajakda ularning nafaqat davlat sud eksperti sifatida, balki nodavlat sud ekspertiza tashkilotlarida yoki mustaqil sud eksperti sifatida ham faoliyat olib borish imkonini beradi va mehnat bozoriga shakllangan, malakali kadr sifatida kirib kela oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Sud ekspertizasi to'g'risidagi" O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 01.06.2010-yildagi O'RQ-249-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sud-ekspertlik faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 17.01.2019-yildagi PQ-4125-son qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida sud-ekspertlik tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 05.07.2021-yildagi PF-6256-son farmoni.
4. Professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish chora-tadbirlari haqidagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 29.03.2021-yildagi 163-son.
5. Sud ekspertiza sohasini tartibga soluvchi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarini tasdiqlash to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 22.11.2021-yildagi 706-son qarori.
6. Dual ta'limning nazariy asoslari // ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 2 | ISSUE 6 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723 DOI: 10.24412/2181-1385-2021-6-1462-1467.
7. mandat.dtm.uz